

## AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI

**Yorqinoy Nurumbekova**

Guliston davlat pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası mudiri, professor.

**Ozoda Kuchkorova**

Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20580031>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, shaxsiy va kasbiy kamolotga erishish omillari tahlil qilingan. Akmeologik yondashuvning bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** akmeologiya, akmeologik yondashuv, kasbiy kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy faoliyat, pedagogik ta'lim, kasbiy rivojlanish, metodika.

**Annotation.** This article highlights the theoretical and methodological foundations of preparing prospective teachers for professional activity based on an acmeological approach. It also analyzes the development of professional competence and the factors contributing to personal and professional growth in the process of teacher training. The significance of the acmeological approach in improving the professional preparedness of future teachers is revealed.

**Keywords:** acmeology, acmeological approach, professional competence, prospective teacher, professional activity, pedagogical education, professional development, methodology.

**Аннотация.** В данной статье освещаются теоретические и методические основы подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе акмеологического подхода. Также анализируются вопросы развития профессиональной компетентности, факторы достижения личностного и профессионального совершенствования в процессе подготовки педагогических кадров. Раскрывается значение акмеологического подхода в совершенствовании профессиональной подготовки будущих учителей.

**Ключевые слова:** акмеология, акмеологический подход, профессиональная компетентность, будущий учитель, профессиональная деятельность, педагогическое образование, профессиональное развитие, методика.

### **Kirish.**

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanish bosqichi pedagog kadrlarni tayyorlash sifatiga tubdan yangicha talablarni qo'yimoqda. Bugungi kun maktabiga nafaqat o'z fanini mukammal biladigan mutaxassis, balki doimiy ravishda shaxsiy va kasbiy o'sishga intiluvchan, kreativ fikrlaydigan va yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi zarur. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda oliy pedagogik ta'lim jarayoniga akmeologik yondashuvni tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Akmeologiya (grekcha "akme" – cho‘qqi, gullash davri) – insonning shaxs va mutaxassis sifatida o‘z taraqqiyotining eng yuqori nuqtasiga (cho‘qqisiga) erishishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandır.

Pedagogik ta’limda akmeologik yondashuv bo‘lajak o‘qituvchini shunchaki bilim va ko‘nikmalar majmuasi bilan qurollantirib qolmay, balki unda "**motivatsion-qadriyatli tayyorgarlik**"ni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv talabani o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy cho‘qqilarni zabt etish va pedagogik mahoratini muntazam oshirib borish subyektiga aylantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning an’anaviy metodikasida ko‘proq bilim berish (reproduktiv) funksiyasiga urg‘u berilgan bo‘lsa, akmeologik yo‘naltirilgan metodika talabaning ichki imkoniyatlarini (potensialini) yuzaga chiqarishga, unda kasbiy refleksiyanı (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini) uyg‘otishga qaratilgan.

#### **Material va metodika.**

Akmeologiya insonning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining eng yuqori cho‘qqisiga erishish qonuniyatlarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Akmeologik yondashuv esa shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, kasbiy mahoratini muntazam takomillashtirishi hamda kasbiy yetuklikka erishishiga yo‘naltirilgan ta’limiy faoliyatni tashkil etishni nazarda tutadi.

Tadqiqot jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda amaliy samaradorligini baholash maqsadida pedagogika, psixologiya va akmeologiya fanlariga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot materiallari sifatida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogik ta’limga oid davlat ta’lim standartlari, o‘quv-me’yoriy hujjatlar hamda ilmiy maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va akmeologik yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularning kasbiy o‘zini o‘zi anglash va o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

#### **Nazariy metodlar:**

- ilmiy-pedagogik, psixologik va akmeologik adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- qiyosiy-tahliliy yondashuv;
- tizimlashtirish va umumlashtirish;
- pedagogik jarayonlarni modellashtirish;
- ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish.

#### **Empirik metodlar:**

- pedagogik kuzatish;
- suhbat;
- anketa so‘rovlari;
- test sinovlari;
- ekspert baholash;
- pedagogik tajriba-sinov ishlari.

Tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv mezonlar asosida baholandi. Tajriba jarayonida akmeologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika amaliyotga joriy etilib, uning samaradorligi nazorat va tajriba guruhlarini natijalari orqali aniqlandi.

Olingan ma'lumotlarning ishonchligini ta'minlash maqsadida matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar foiz ko'rsatkichlari asosida qayta ishlanib, tajriba-sinov ishlari samaradorligi tahlil qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati, refleksiv qobiliyatlari va kasbiy rivojlanish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aniqlanib, akmeologik yondashuvning pedagogik ta'lim jarayonidagi samaradorligi baholandi.

### **Natijalar va muhokama**

Tadqiqot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba davomida talabalarning kasbiy kompetentligi, kasbiy motivatsiyasi, refleksiv qobiliyatlari hamda pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi o'rganildi.

Tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar kasbiy faoliyatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga erishdilar.

Ularning pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli holatlarda samarali qaror qabul qilish hamda mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlandi.

Shuningdek, talabalarda o'z kasbiy rivojlanishini rejalashtirish, o'z imkoniyatlarini baholash va pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyatlari shakllandi. Bu esa akmeologik yondashuvning asosiy maqsadi bo'lgan kasbiy yetuklikka erishish jarayonini jadallashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, akmeologik yondashuv asosida ta'lim olgan talabalar an'anaviy usullar asosida tayyorlangan talabalarga nisbatan pedagogik faoliyatga yuqori darajada tayyor ekanliklarini namoyon etdilar.

Ularning kasbiy motivatsiyasi, innovatsion faoliyatga qiziqishi va pedagogik mahorat ko'rsatkichlari sezilarli ravishda oshdi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, akmeologik yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning:

- kasbiy o'zini anglash darajasini;
- pedagogik kompetentligini;
- refleksiv qobiliyatlarini;
- kommunikativ madaniyatini;
- kreativ fikrlash ko'nikmalarini;
- innovatsion faoliyatga tayyorligini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Olingan natijalar mahalliy va xorijiy olimlarning akmeologik yondashuvga oid ilmiy qarashlari bilan hamohang bo'lib, pedagogik ta'lim jarayonida mazkur yondashuvdan foydalanishning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida akmeologik yondashuvdan foydalanish ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik mahoratini oshirish hamda kasbiy yetuklikka erishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur yondashuv talabalarning kasbiy motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish, refleksiv faoliyatini takomillashtirish va innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy komponentlari ishlab chiqildi hamda ularning o'zaro integratsiyasi ta'minlandi. Ushbu metodika talabalarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hamda pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishi aniqlandi.

Shuningdek, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'zini anglash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishga imkon yaratadi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimi uchun raqobatbardosh, kreativ fikrlovchi va yuqori kasbiy salohiyatga ega pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida akmeologik yondashuvga asoslangan metodikalarni keng joriy etish, o'quv jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim muhitini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.
2. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T. . Istiqlol, 2003. - 176 b.
3. Ochilov M., Ochilova N. Ovqituvchi odobi. Saylanma. -T.: o'qituvchi, 1997.
4. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.: Iqtisod-moliya 2009. - 240 b. UO`K 37.02 KBK 74.0 X 10
5. D.U.Xolbo'tayeva. Pedagogik mahorat. – Toshkent: “Science and Innovation”, 2024. – 244 b.